

## O'QUVCHILARDA MUSIQIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

*Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti*

*Madrimova Feruza Bahram qizi*

**Annotatsiya:** Musiqiy tasavvurlar psixologik jihatdan anglangan xarakterga ega. Ushbu tasavvurlar bizningcha, individ, guruh yoki millatning etnopsixologik xususiyatlari asosida, jumladan, o'zbek xalq musiqasi haqidagi tasavvurlar turli yosh guruhlardagi shaxslarda individual, xududiy xususiyatlar, milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, munosabatlar ta'siri ostida shakllanadi.

**Tayanch so'zlar:** musiqiy qobiliyat, zarb, raqs, folklor, musiqiy asar.

**Abstract:** Musical imaginations have a psychologically realized character. In our opinion, these ideas are formed on the basis of the ethnopsychological characteristics of an individual, group or nation, including the ideas about Uzbek folk music in people of different age groups under the influence of individual, regional characteristics, national values, traditions, customs, and relationships.

**Key words:** musical ability, percussion, dance, folklore, musical work.

O'quvchi yoshlarda musiqiy qobiliyatlar namoyon etilishining xususiyatlari ko'لامи va sifati shaxsning xalq musiqasi borasidagi bilimlari, ushbu musiqaga nisbatan munosabati darajasi va faoliyat motivlari sifatidagi ahamiyati me'yорини aks ettiradi.

Ushbu xususiyatlarni chuqr anglash orqali musiqaniig emotSIONALPSIXOLOGIK va tarbiyaviy imkoniyatlarini o'zida his etish shaxsning musiqiy qiziqishlari va ijtimoiy muhitdagi musiqa madaniyatiga nisbatan shakllangan munosabatga beradigan bahosi aks etishi mumkin. Ma'lum uslub, janr, yo'nalishlar va alohida musiqa asarlari haqida individ yoki turli yosh guruhlarda musiqiy qobiliyat shakllanishi mazkur asarlar borasidagi reklama - targ'ibot hamda tinglash intensivligiga bog'liqdir. Chunki badiiy saviyasidan

qat’iy nazar keng targ‘ib qilinadigan har qanday janr, shakl va uslubdagi musiqa asarlari turli tinglovchilar guruhlarida ijobiy tasavvurlar uyg‘otishi mumkin.

Musiqa - inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma’naviy olamini butunligicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladi. U kishi ruhiy tizim xususiyatlarini ifodalash, milliy ruh holatlarini vujudga keltirish imkoniyatiga ham ega.

Buyuk bastakorlar ijodida u yoki bu xalqqa xos bo‘lgan ruhiy xususiyatlar, tuyg‘u holatlari va voqelikni ifodalashning o‘ziga xosligi yaqqol ko‘rinadi.

Milliy ruh xususiyatlarini aks ettirish jarayonida xalq musiqiy ijodi katta o‘rin tutadi. Buyuk rus fiziologi I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, inson kechirayotgan turli his-tuyg‘ular bosh miya yarim sharlari po‘stloq qismining faoliyati asosida yuzaga keladi.

Atrof-muhitning inson organizmiga doimiy ta’siri va organizmning bu ta’sirlarga qonuniy javob reaksiyasi natijasida asta-sekin ma’lum bir munosabatlar tizimi vujudga keladi. Bu kishi hissiyotlarning fiziologik va psixologik tabiatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar, ayniqla, o‘quvchilarida estetik hissiyotni shakllantirish haqida fikr yuritganda, e’tiborni avvalo, ikki muhim masalaga qaratish kerak. YA’ni:

- o‘quvchilarda estetik hissiyotning paydo bo‘lishi uchun obyektiv shart-sharoitlar mavjudmi?

- o‘quvchilar san’at asarlarini go‘zallik nuqtayi nazardan baholay oladilarmi?

Psixologiya fanidan ma’lumki, voqelik ta’siri ostida paydo bo‘ladigan sezgi va idrok hissiyotning asosiy manbaidir. Bolalarda bosh miya va sezgi organlarining taraqqiyoti yetarli darajada yuksak bo‘lmaganligi tufayli ularda sezuvchanlik birmuncha ta’sirli bo‘ladi.

Musiqani to‘la-to‘kis idrok etish uchun diqqat, xotira va musiqiy tafakkur zarur va muhimdir. Ana shundagina insonning tasavvuri yordamga keladi va estetik hissiyot shakllanadi. Aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, musiqiy asarni to‘liq idrok etish uchun inson psixikasining faoliyati xilma-xil bo‘lmog‘i lozim. Musiqiy-nazariy bilimlarni

o‘zlashtirishdan maqsad, o‘quvchilarning musiqiy asarning lad, o‘lchov, sur’at, registrini aytib berishlari emas, balki musiqaning yuqoridagi ifoda vositalari orqali ularda shaxsga xos xususiyatlarni: ijodiy qobiliyat, erkin fikrlash, xotira, tasavvur, faollik, tashabbuskorlikni shakllantirishdir. O‘zbek xalqi asrlar davomida quvonch, g‘am-alam, armon kabi o‘y-kechinmalari va his-tuyg‘ularini kuy va qo‘shiqlar orqali ifodalab kelgan. Xalqimizning ma’naviy boyligini qo‘shiq va kuylarida, unga bo‘lgan hurmat va munosabatda ko‘rish mumkin. Musiqiy ta’lim-tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning psixologik asoslarini o‘rganish muhimdir. Bugun hayotimizda musiqa har bir xonadonga kirib borgan. Musiqa musavvirlik va haykaltaroshlikdan farqli tarzda dunyo haqida tasavvurlar emas, balki tuyg‘ular va kayfiyatlar hosil qiladi. Musiqada tuyg‘ular hayotiy tuyg‘ularning aynan o‘zi bo‘lmay, ular tanlab olingan, tasodifyi lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtayi nazardan anglangan bo‘ladi. Musiqa inson hissiyotlari holatining barcha rango-rang tovlanishlarini aks ettirishga qodir. U tuyg‘ular, nozik kechinmalar va kayfiyat holatlarini ham ifoda eta oladi. Musiqa vaqt mezoniga amal qilib, kechinmalarning o‘zgartirib turishi, avjlanish va pasayish jarayonlarini qamrab oladi. Yoshlar biror bir musiqiy asarni tinglar ekanlar, uning turfa ovozlari, ifoda vositalari, xarakter va kayfiyatini farqlashni, eshitgan musiqiy asarning qaysi janrga mansubligini, mumtoz, estrada yoki boshqa musiqiy ohanglarni bir-biridan farqlay olishni hissiy-emotsional jihatdan idrok eta boradilar, boshqacha qilib aytganda, ularda musiqiy did shakllanadi. Musiqiy did, musiqiy dunyoqarashning shakllanishida darsdan tashqari va mакtabdan tashqari ishlarning qay darajada yo‘lga qo‘yilganligi, o‘quvchilarning yashash sharoitlari, oiladagi muhit va oilaning musiqaga munosabati, ota-onalar, oilaning boshqa a’zolarini musiqaga bo‘lgan munosabatlari ham muhimdir. Har bir mamlakatning o‘z madaniy va ma’naviy omillari bo‘lgani singari xalqimizning milliy qadriyatlari yangi jamiyatni barpo etishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan milliy tafakkurni yaratish, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda xalqimizning milliy, ma’naviy merosidan foydalanish eng muhim vazifalardandir. Zero, milliy qadriyatlarni sevish, ardoqlash, uni o‘sib kelayotgan yosh

avlod ma'naviyatiga singdirish eng muqaddas tuyg'udir. Bu muqaddaslikning g'oyaviy, badiiy-estetik ifodasi xalqimizning boy, betakror hamda serqirra musiqa merosi, uning musiqiy an'analarida dostonchilik, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlarida o'zining yuksak badiiy ifodasini topgandir. Ulardan ta'lim va tarbiya tizimida imkon qadar keng foydalanish ta'limning milliy negizini mustahkamlashga xizmat qiladi. Musiqa san'ati hamma zamonlarda ham qudratli tarbiya vositasi bo'lib kelganligi va bugungi kunda undan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishga ehtiyojning tobora ortib borayotganligi ham ayni haqiqatdir. Umumta'lim maktablaridagi "musiqa madaniyati" darslarini, unda o'quvchilarni xalq musiqa merosi namunalari bilan tanishtirish holatini kuzatish, tahlil qilish bu borada jiddiy muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Bu muammolar eng avvalo quyidagi holatlarda namoyon bo'layotganligini ta'kidlab o'tishni joiz deb bildik:

- Umumtalim maktablarida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilarini aksariyatining xalq musiqa ijodiyoti bo'yicha yetarli bilim malakasi va tayyorgarlikka ega emasligi;
- Xalq musiqasi, uning eng ommaviy va ta'sirchan turi bo'lgan xalq qo'shiqlari bo'yicha sinflar kesimida musiqiy to'plamlarni yetishmasligi yoki yo'qligi;
- folklor qo'shiqlarini o'quvchilarga o'rgatish tarbiyaviy ta'sirchan namunalarini tanlash bo'yicha pedagogik mezonlarni sinflar kesimida ishlab chiqilmaganligi, shu yo'nalishdagi uslubiy qo'llanmalarga ehtiyojning tobora ortib borayotganligi;
- folklor qo'shiq va kuylari, mumtoz, maqom, dostonchilik qo'shiqlari bo'yicha maxsus fonetikalarni yo'qligi va yetishmasligi;

Mana shunday vaziyatlarda muammolarni yechimi yo'lida nimalarga e'tibor berish lozim? Bu o'rinda biz o'zimizning quyidagi tavsiyalarimizni ilgari surishni lozim topdik:

- Birinchi navbatda muktab musiqa o'qituvchilarini uchun mo'ljallangan malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini faoliyatini xalq musiqa ijodiyoti mazmunida tubdan yangilash;

- Musiqa darslarini kam bo'lsada hali hanuz dars soati kam bo'lgan boshqa fan o'qituvchilariga berish holatlariga qat'iy barham berish;
- Kuylash va tinglash uchun taqdim etiladigan xalq qo'shiqlari bo'yicha "maktab repertuarlari"ni sinflar kesimida yaratish va barcha umumta'lim maktablarini ta'minlash;
- Maktab repertuarida xalq qo'shiqlari, turli mahalliy uslublarga xos folklor namunalariga, shu jumladan bolalar aytim-qo'shiqlariga birlamchi e'tibor qaratish;
- Darsliklarni yangi avlodini yaratishda ularga kiritilgan xalq qo'shiqlari namunalari haqidagi ma'lumotlarga (qaysi ijrochilik uslubiga mansubligi, ijro uslubi, an'anaviylik xususiyati qanday holatda, kimlar tomonidan, qaysi paytda va hokoza) harakat yoki raqs jo'rлигida ijro etilishiga kengroq o'rin berish;
- Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida xalq musiqa ijodiyotining folklor, mumtoz va maqom, dostonchilik yo'nalishlari bo'yicha ko'rik-tanlovlari, mavzuli kechalar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, kon-sertlar, uchrashuvlar o'tkazishni, ijodiy jamoalarga musiqiy sayohatlar uyushtirish kabilarni tizimli yo'nga qo'yish, o'quvchilarni milliy musiqamizni sevish, qadrlash va kelgusida unga vorislik qila oladigan shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi. Shu o'rinda yoshlar o'rtasida ommaviy estrada qo'shiqlarini tinglash, kuylash ularga taqlid qilishga haddan ziyod ruju qo'yish xolatlari kuchayib borayotganligi ham musiqiy estetik tarbiya sohasidagi ishlarning ko'ngildagidek emasligining oqibati deyish mumkin. Eng avvalo o'sib kelayotgan yoshlarni ommaviy musiqaning buzg'unchi ta'sirlaridan himoya qilishimiz zarur. Buning eng samarali yo'li yoshlar ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan pedagog-murabbiylarning kuchlarini bir maqsad yo'lida birlashtirish talab etiladi. Bu o'rinda barcha mas'ul pedagoglarning asosiy vazifasi o'quvchi yoshlarni musiqiy qobiliyatini namoyon etishda milliy musiqa madaniyatining durdonasi bo'lgan o'zbek musiqa folklori, raqs san'ati, bolalar xalq qo'shiqlari, musiqa ijodiyoti namunalarini chuqr tushuntirib, ularning ongi, ma'naviyatiga singdirib borishimiz, shu orqali ularni ma'naviy-estetik va axloqiy-ruhiy kamol topishiga erishishimiz muqarrar ekanligini alohida ta'kidlab o'tish o'rnlidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Ozod va obod demokratik mamlakat O‘zbekistonni birlashtirishning qurʼaniy qoidalari. - T.: O‘zbekiston. 2016 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: O‘zbekiston. 2017 yil.
3. Sh.R. Barotov, E.M. Muxtorov O’smirlarda o’zini-o’zi psixologik himoya qilish haqidagi g’oyalarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari. Toshkent “Fan” nashriyoti, 2008 yil.
4. Madrimov B. (2021). Classic national "makom" and its place in the educational process of the direction "musical education". International Journal on Integrated Education. Vol. 4, Issue 2, pp. 121-124.
5. Khudoynazarovich M.B. (2021). Historical stages in the development of uzbek folk art. World Bulletin of Social Sciences. Vol. 1, no. 1, pp. 32-33.
6. Мадримов Б. (2020). Представление учителя музыкальной культуры о педагогическом творчестве и педагогической технологии. Вестник науки и образования. № 21-2 (99), С. 55-60.
7. Мадримов Б. (2020). Бухарский Шашмаком-Феномен в культуре Центральной Азии. Наука, техника и образования. № 10 (74), С. 70-75.
8. Madrimov B. (2020). About the voice songs of the Chulpan. Theoretical & Applied Science, 4 (84), pp. 434-437.
9. Madrimov B., Rajabov T., Nurillaev F. (2020). Teaching Bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, no. 4, pp. 6049-6056.